This is not registered version of TotalDocConverter

Nihoyat, bu xilvat, ovloq qishloqda uning qidiruvlari yakunlandi. Chirib, to'kilay deb qolgan xarob kulbada miltillab turgan olov yonida Haqiqat o'tirardi.

U umrida hech qachon bundayin qari va badbashara ayolni ko'rmagan edi.

- Siz - Haqiqatmisiz?

Qartaygan, burushiq alvasti tantanavor bosh silkidi.

- Ayting-chi, men insoniyatga siz haqingizda bildirishim kerakmi? Ularga qanday xabarni yetkazay?

Kampir olovga tupurdi-da, javob berdi:

- Ularga meni yosh va sohibjamol deb ayt!